

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

DANABAYEV XURSHID NAPASOVICH

**KAMBAG‘ALLIK MAZMUNI VA MEZONLARI, SABABLARI VA
OQIBATLARINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI**

09.00.04–Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand– 2024

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Danabayev Xurshid Napasovich

Камбаг'аллик mazmuni va mezonlari, sabablari va oqibatlarining ijtimoiy falsafiy
tahlili..... 3

Данабаев Хуршид Напасович

Социально-философский анализ содержания и критериев, причин и
последствий бедности21

Danabayev Xurshid Napasovich

Social and philosophical analysis of the content and criteria, causes and
consequences of poverty41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

DANABAYEV XURSHID NAPASOVICH

**KAMBAG‘ALLIK MAZMUNI VA MEZONLARI, SABABLARI VA
OQIBATLARINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2022.1.PhD/Fal684 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida
(www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Negmatova Shahzoda Shuhratovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xajiyeva Maksuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Abilov Ural Muradovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soatdagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 235-19-38, 235-64-90; faks: (8366) 231-15-86, (8366) 235-27-24; e-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 235-19-38, 235-64-90; faks: (8366) 231-15-86, (8366) 235-27-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R. Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda insonning moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganlik darajasi, turmush farovonligi, hayot tarzi, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish me'yori oshgani sayin ulardan foydalanish imkoniyati darajasi ko'payib, jamiyatdagi kambag'allik darajasi kengayib bormoqda. Shu bois, xalqaro miqyosda kambag'allik ko'lamining asta-sekinlik bilan ortishi jamiyatning barcha (iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy) sohalarini rivojlanishiga ham ta'sir etmoqda. Ayniqsa, XXI asrga kelib, kambag'allik zamonaviy kishilik jamiyati taraqqiyotini sekinlashtirayotgan jiddiy umumbashariy muammoga aylanmoqda. Pirovardida, kambag'allik muammosini sabab va oqibatlarini aniqlash uni bartaraf etishning mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriyatini oshirmoqda.

Jahon ilm-fanida kambag'allikning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy aspektlari siyosiy-madaniy jarayonlardagi o'zgarishlarga hamda iqtisodiy ko'tarilishning past-baland darajalariga destruktiv ta'siri turli sohadagi (sotsiolog, iqtisodchi, faylasuf, siyosatchi) olimlar tomonidan egalitaristik, statistik-sotsiologik yondashuvlar asosida keng o'rganilgan bo'lsada, uning kelib chiquvchi sabab va oqibatlarini tahlil etish, mezonlarini belgilash, bartaraf etish yo'llari yuzasidan falsafiy tadqiqotlar yetarli emasligi ma'lum bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan bugungi kunda, xalqaro miqyosda kambag'allik darajasining tobora ortib borish tahdidi yuzaga chiqqan bir vaqtda, ushbu muammoga qarshi kurashishning yangi yechimlarini taklif etish hamda oldini olish chora-tadbirlari yuzasidan davr talabiga javob bera oladigan falsafiy-ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda kambag'allik ijtimoiy hodisasiga doir nazariy bilimlarni real voqelik bilan qiyoslash, bu muammoni bartaraf etishning amaliy mexanizmlarini tadqiq qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizning bugungi kun sharoitida, Yangi O'zbekiston va uni barpo etish yo'lida jamiyatning farovon hayot tarzini ta'minlash, kambag'allik darajasining kamaytirish, inson manfaatlariga xizmat qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy barqaror muhitni rivojlantirish davlat siyosatining asosiy bo'g'iniga aylanmoqda. "Davlatimiz siyosatining barcha ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda kambag'allikni qisqartirish muhim o'rin egallaydi"¹. Shu maqsad yo'lida kambag'allik fenomenini falsafiy tadqiqot obyekti sifatida chuqur tahlil etish, xalqaro tajribalar asosida konstruktiv usullarni ishlab chiqish, uni oldini oluvchi zamonaviy mezonlarni shakllantirish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Bundan kelib chiqib, yurtimizda kambag'allik darajasi o'sishiga olib keladigan muammolarning oldini olish, innovatsiyon, ilmiy-konseptual, zamonaviy, falsafiy tadqiqotlarni amalga oshirishni taqoza qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, shuningdek, 2021-yil 30-iyuldagi PQ-5204-son

¹Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.:Ўзбекистон, 2021. - Б.442.

“Kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo‘llab quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktabrdagi 654-son “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kambag‘allik ijtimoiy hodisasi bir necha asrlardan buyon turli kontekstlarda o‘rganib kelingan. Shu ma’noda, ushbu tadqiqot ishi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruh. Ushbu guruhga bevosita kambag‘allik fenomenining ilmiy-nazariy tahlili bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borgan xorijlik olimlarni kiritish mumkin. Xususan, XVIII-XX-asrlarda G.Spenser², P.J.Prudon³, E.Giddens⁴ kambag‘allikni jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch sifatida talqin qildilar. Bu olimlar muammoni sotsial-darvinistik yondashuv asosida tahlil etdilar. Shuningdek, J.Russo⁵, G.Babef⁶, K.Marks, F.Engels⁷ kabi olimlar mazkur masalaga egalitaristik yondashib, uni adolatsiz ishlab chiqarish munosabatlari va moddiy ne‘matlar taqsimotidagi nomuvofiqliklar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy holat sifatida ta’rifladilar. F.Le-Ple, Ch.But⁸, S.Rauntri esa kambag‘allikni ijtimoiy illat sifatida tavsiflab, uning yechimi yuzasidan statistik-sotsiologik yondashuvni ma’qulladilar. Shu bilan birga, kambag‘allik ijtimoiy hodisa sifatida bugungi kunda ham xorijda keng tadqiq etilmoqda. Xususan, P.Abraxamson⁹, P.Alonso, Dj.Aponte, M.Aregavi, A.Barrette, R.Bergkvist, L.Berjeron¹⁰, P.J.Hotez¹¹, R.Sibulskis, Dj.Chen, X.Chjou¹² asarlarida uning umumsayyoraviy muammoga

²Спенсер Г. Описательная социология или группы социологических фактов, классифицированные и распределенные Г. Спенсером. - Киев,1878.

³ Прудон П.Ж. Бедность, как экономический принцип. -М.: Посред-ник, 1908.

⁴ Гидденс Э. Стратификация и классовая структура // Социологические исследования, 1992, № 9. –С. 112-123; № 11. –С. 107-120

⁵ Руссо Ж.Ж. Рассуждения о происхождении и основаниях неравенства между людьми.//Трактаты. –М.: Наука, 1969.

⁶ Бабэф Г. Манифест плебеев // Сочинения: в 4 т. М.: Наука, 1977. Т. 3. -С. 476-524.

⁷ Маркс К., Энгельс Ф. Капитал // Сочинения. Том 2. Москва.: Гос.изд. пол.лит., 1955.

⁸ Бут Ч. Жизнь и труд лондонцев. (фрагменты). // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 11, Социология, 2013, №2. –С. 123-143.

⁹Абрахамсон, П. Социальная эксплозия и бедность.// Общественные науки и современность, 2001, №2. –С. 158-166.

¹⁰ Cibulskis R.E., Alonso P., Aponte J., Aregawi M., Barrette A., Bergeron L., etal. Malaria: global pro-gress 2000–2015 and future challenges.- Infect Dis Poverty, 2016, №5

¹¹Hotez P.J. Whatever happened to China’s neglected tropical diseases?- Infect Dis Poverty, 2019, №8;

¹²Zhou X.N. Infectious Diseases of Poverty: 10 years’ commitment to One Health.- InfectDisPoverty, 2021, №10.

aylanishi sabablari, oqibatlarini, bartaraf etish yoʻllariga doir ahamiyatli mulohazalar bayon etiladi.

Ikkinchi guruh. MDH mamlakatlarida ham mavzuga doir qator diqqatga sazovor ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, mazkur tadqiqotlar natijasida tayyorlangan S.A.Abramov¹³, Ye.I.Beglova¹⁴, V.N.Bobkov, Ye.V.Burlakova, N.D.Vavilina, O.V.Voronkova¹⁵, I.V.Golubenko¹⁶, M.N.Davletshina¹⁷, M.Desyatkina, V.V.Petuxov, Ye.Rumyanseva, Ye.V.Faxrutdinova, L.M.Xusnutdinovlarning ilmiy ishlarida kambagʻallik fenomenining ijtimoiy-madaniy aspektlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va maʼnaviy-madaniy jarayonlarning insonlar hayoti va turmush darajasiga taʼsiri atroflicha ochib berilgan¹⁸. Mazkur mutaxassislar tadqiqotlarida asosan kambagʻallik fenomenining institutsional, ijtimoiy, sotsiologik, evolutsion va iqtisodiy faktorlariga eʼtibor qaratilgan.

Uchinchi guruh. Mamlakatimizda kambagʻallik muammosiga, avvalo, davlat rahbari tomonidan eʼtibor qaratilishi ilmiy jamoatchilikning ham mazkur masalaga yondashuvini oshirdi. Shu munosabat bilan keyingi yillarda qator ilmiy ishlar eʼlon qilindi. Xususan, B.Usmonov, M.Pardayev, O.Pardayev, K.Uzakov, M.Qirgʻizboyev, R.Hasanovlarning ilmiy ishlarida kambagʻallik muammosining mohiyati va omillari, uni qisqartirish yoʻllari haqida mulohaza yuritiladi¹⁹. Mazkur tadqiqotlarda kambagʻallik muammosiga asosan iqtisodiy muammo sifatida yondashilib, uning yechimida aholi bandligini oshirish masalasi, bu hodisani prognoz qilish koʻrsatkichlari va omillari tahliliga asosiy eʼtibor qaratiladi. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar diqqatga sazovor, biroq, kambagʻallik oʻta murakkab va koʻpaspektli ijtimoiy muammolar turkumiga kiradi. Shu boisdan kambagʻallik ijtimoiy hodisasining mazmuni va mezonlari, sabablari va oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan ochib berish, mavzuga doir nazariy bilim va xulosalarni real voqelik bilan qiyoslash masalasi hanuzga qadar oʻz dolzarbligini yoʻqotgani yoʻq. Biz oʻz tadqiqotimizda aynan shu masalalarga eʼtibor qaratamiz.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq CY-01-son “Oʻzbekistonda ijtimoiy-maʼnaviy muhit

¹³Абрамов, С.А. Бедность как экономическая категория: институционально-эволюционный подход: Дисс. канд. экон. наук.-Волгоград, 2004.

¹⁴Беглова, Е.И. Социокультурные особенности феномена бедности в России.// Современные исследования социальных проблем, 2012, № 9.

¹⁵Воронкова, О.В. Теория и практика государственного регулирования уровня бедности.//Экономические науки, 2008, №8.

¹⁶Голубенко, И.В. Преодоление бедности: зарубежный опыт и российская практика: Автореф. дис. ... канд. экон. наук.- М., 2007.

¹⁷Давлетшина, М.Н. Социально-экономические факторы бедности в трансформационной экономике: дисс. ... канд. экон. наук.- Казань, 2004.

¹⁸Фахрутдинова, Е.В., Хуснутдинова, Л.М. Бедность в структуре показателей качества жизни населения.// Экономические науки, 2011, № 12.

¹⁹Пардаев М.К., Пардаев О. Мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари.// Логистика ва экономика, 2020, №5; Узаков К.П. Камбағалликни кискартиришда аҳоли бандлигини таъминлаш масалалари.// Academic research in educational sciences, 2021,№10.- 579-594-б; ҚирғизбоевМ. Камбағаллик – XXI асрмуаммоси.- Наставник, 2021, №1. –С. 6-14; Ҳасанов Р. Камбағаллик муаммоси: моҳияти ва омиллари.// Иқтисодиёт: таҳлиллар ва прогнозлар, 2021, №1.; Ҳасанов Р., Усмонов Б. Ўзбекистонда камбағаллик ва уни кискартириш йўллари.// review.uz, 2020, 6 март.

barqarorligini ta'minlashning falsafiy asoslari" nomli tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda kambag'allik ko'lami, sabab va oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil etish orqali uni kamaytirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kambag'allik ijtimoiy hodisasining mazmuni va ko'rinishlarini aniqlash;

kambag'allik darajasini aniqlash mezonlari, ko'lamini ifodalash uslublariga doir nazariy bilim va amaliy tajribalarni umumlashtirish;

kambag'allikni yuzada keltirayotgan turli muammolarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini aniqlash va tahlil etish;

O'zbekistondagi kambag'allikning o'ziga xos xususiyatlari, vujudga kelish sabablarini ochib berish;

O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirishga xizmat qiladigan amaliy tavsiyalar majmuyini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida kambag'allik ijtimoiy hodisasi tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda kambag'allikning darajasi, mezonlari, sabab va oqibatlarini ilmiy-nazariy, falsafiy-konseptual tahlil etish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va umumlashtirish, ta'riflash va tasniflash, induktiv va deduktiv usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda kambag'allik ko'lami va darajasining tub ildizlari ishsizlik, mahalliy hokimliklar ish uslubining eskirganligi, ta'lim tizimi va sog'liqni saqlash tizimi isloh etilishi masalasi, o'ziga xos demografik vaziyat hamda mintaqalarning notekis rivojlanganligiga bog'liqligi nazariy bilimlarni real voqelik bilan qiyosiy tahlili asosida ochib berilgan;

O'zbekistonda kambag'allik fenomenining iqtisodiy o'sish sur'atlari, yashirin iqtisodiyot ko'lami, mehnat migratsiyasi, aholi xarid qobiliyati, jinoyatchilik darajasi, ijtimoiy tengsizlik ahvoli, shahar va qishloqlar qiyofasi kishilarning ijtimoiy voqelikka munosabati hamda g'oyaviy e'tiqodiga ta'sir qilayotgani rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy fakt va argumentlar talqini orqali dalillangan;

kambag'allikning ijtimoiy-iqtisodiy progressiv ko'rsatkichlarini geosiyosiy omillardan muhofaza qilish, yaratilayotgan ish o'rinlari sifatini oshirish, raqamli iqtisodiyot elementlaridan foydalanish, sifatli ta'lim olish va tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoya tizimini zamonaviylashtirish, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalarini o'rganish orqali bartaraf etilishi umummetodologik va umummantiqiy uslublar yordamida asoslangan;

kambag'allik hodisasini bartaraf etish yo'li sifatida uzluksiz mehnat tarbiyasi tizimini yaratish, mehnat tarbiyasiga oid zamonaviy, konstruktiv manbalar tizimini kengaytirish, mehnat faoliyatini rag'batlantirish tizimini yaxshilash strategiyasi argumentatsiya nazariyasi tamoyillari yordamida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

kambag'allik mazmuni va mezonlari, sabab va oqibatlariga oid natijalar ijtimoiy-falafiy tahlil asosida tizimlashtirilgan;

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi va ko‘lami hamda uni bartaraf etish yo‘llariga oid ilmiy-nazariy xulosalar umumlashtirilgan;

kambag‘allik fenomenining dinamik o‘shish sur‘atini kamaytirishda uzluksiz mehnat tarbiyasi tizimini shakllantirishning konstruktiv mexanizmlari aniqlangan;

O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirish yuzasidan strategik rivojlanish konsepsiyalari, amaliy tavsiya va chora-tadbirlar majmuyi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika xalqaro ilmiy konferensiyalar to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalardagi xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan nazariy va uslubiy xulosalar, taklif va tavsiyalardan falsafa va fan metodologiyasi, ta‘lim va tarbiya falsafasi, texnika falsafasi, inson falsafasi, turizm falsafasi, mehnat iqtisodiyoti, tizimli tahlil kabi fanlar doirasida foydalanish, shuningdek, sohaga doir keyingi tadqiqotlarni yangi umumnazariy g‘oyalar va falsafiy fikrlar bilan boyitish hamda ilmiy apparatini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa uning xulosalari va amaliy tavsiyalaridan mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti darajasini yuksaltirishga doir strategiyalar ishlab chiqishda, iste‘mol ehtiyojlarini yaxshilashda, kambag‘allikni qisqartirish dasturini tayyorlashda, ta‘lim muassasalarining mehnat tarbiyasini shakllantirish borasidagi ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatida, shuningdek turli tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini samarali tashkil etishga oid targ‘ibot va tashviqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kambag‘allik mazmuni va mezonlari, sabablari va oqibatlarining ijtimoiy falsafiy tahlili asosida:

O‘zbekistonda kambag‘allik ko‘lami va darajasining tub ildizlari ishsizlik, mahalliy hokimliklar ish uslubining eskirganligi, ta‘lim tizimi va sog‘liqni saqlash tizimi islohtalabligi, o‘ziga xos demografik vaziyat hamda mintaqalarning notekis rivojlanganligiga bog‘liqligi nazariy bilimlarni real voqelik bilan qiyosiy tahlili asosida ochib berilganligiga oid ilmiy yangilik hamda taklif va tavsiyalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yill uchun mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturining II-yo‘nalishida belgilangan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar targ‘iboti” 8-bandi “Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda 2023-yil “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib vazirlik va idoralarning ma‘naviyat-ma‘rifiy yo‘nalishdagi faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish” mavzudagi targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika ma‘naviyat-ma‘rifiy markazining 2023-yil 2-iyundagi 210-son ma‘lumotnomasi). Natijada, O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonda kambag‘allik fenomenining iqtisodiy o‘shir sur‘atlari, yashirin iqtisodiyot ko‘lami, mehnat migratsiyasi, aholi xarid qobiliyati, jinoyatchilik darajasi, ijtimoiy tengsizlik ahvoli, shahar va qishloqlar qiyofasi kishilarning ijtimoiy voqelikka munosabati hamda g‘oyaviy e‘tiqodiga ta‘sir qilayotgani rasmiy statistik ma‘lumotlar, ilmiy fakt va argumentlar talqini orqali dalillanganligiga oid ilmiy yangilik hamda taklif va tavsiyalardan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida 2012-2016-yillarda bajarilgan “O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnat bozorining rivojlanish xususiyatlari va aholi bandligini oshirish yo‘llari” mavzusidagi F-7-23-raqamli fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy universitetining 2023-yil 19-apreldagi 04/11-2285-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mazkur ma‘lumotlar fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasini yanada takomillashtirishga hamda keng jamoatchilikka kambag‘allik fenomeni va unga qarshi kurashish uchun mehnat tarbiyasining ahamiyatini yoritib berishga xizmat qilgan;

kambag‘allikning ijtimoiy-iqtisodiy progressiv ko‘rsatkichlarini geosiyosiy omillardan muhofaza qilish, yaratilayotgan ish o‘rinlari sifatini oshirish, raqamli iqtisodiyot elementlaridan foydalanish, sifatli ta‘lim olish va tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoya tizimini zamonaviylashtirish, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribalarini o‘rganish orqali bartaraf etilishi umummetodologik va umummantiqiy uslublar yordamida asoslanganligi borasidagi ilmiy yangilik hamda taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyati kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining 2022-2023-yillardagi loyihalari ijrosini ta‘minlashda hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir dasturining ssenariysini ishlab chiqishda va amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining 2024-yil 10-yanvar 03/03-24-son ma‘lumotnomasi). Natijada, boshqarma faoliyatini yanada takomillashtirishga va jamiyat a‘zolarida kambag‘allikni kamaytirish bilan bog‘liq amaliy tavsiyalar majmuini anglab etishga xizmat qilgan;

kambag‘allik hodisasini bartaraf etish yo‘li sifatida uzluksiz mehnat tarbiyasi tizimini yaratish, mehnat tarbiyasiga oid zamonaviy, konstruktiv manbalar tizimini kengaytirish, mehnat faoliyatini rag‘batlantirish tizimini yaxshilash strategiyasi argumentatsiya nazariyasi tamoyillari yordamida isbotlanganligiga oid ilmiy yangilik hamda taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan 2023-uilda efirga uzatilgan “Islohotlar amalda”, “Kelajak bunyodkorlari, “Inson qadri uchun” kabi bir qator ko‘rsatuvlar hamda “Islohotlar amalda” eshittirishining media ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 5-dekabr 01-07/388-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuv va eshittirishlarni mazmunan takomillashtirishga, shuningdek, keng jamoatchilik orasida kambag‘allik ijtimoiy hodisasi va undan saqlanish borasida sog‘lom g‘oyalarni keng targ‘ib qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, yetti paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Uning hajmi 128 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi va ilmiy yangiligi asoslangan, ilmiy ishning mamlakatimiz fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari belgilangan, izlanishlar jarayonida olingan natijalarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kambag'allik-ijtimoiy hodisa sifatida mohiyati, mezonlari va sabablari”** deb nomlangan birinchi bobida kambag'allik fenomenining mazmuni va tasnifi, zamonaviy jamiyatda kambag'allikni aniqlash mezonlari va indeksleri, kambag'allikni vujudga keltiruvchi asosiy sabablar tadqiqotchining shaxsiy munosabati hamda izohlari orqali falsafiy-konseptual tahlil etiladi.

“Kambag'allik ijtimoiy hodisasi mazmuni va tasnifi” deb nomlanuvchi birinchi paragrafda kambag'allik tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, falsafiy ta'rifi asoslanib, unda inson ehtiyojlarini minimal darajada qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog'liq ijtimoiy ahvoli ko'rinishidagi xususiyatlari tadqiq qilinadi.

Kambag'allik tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida mavjud bo'lgan. Masalan, Qadimgi Misrda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikdayoq “Hayot uylari” faoliyat ko'rsatgan. Bu uylarda mashhur olim Imxotepa moddiy ta'minoti zaif bo'lgan oilalarning farzandlariga saboq bergan²⁰. Qadimgi Yunonistonda eramizdan avvalgi VII-VI-asrlarda nogironligi va mehnatga layoqatini yo'qotgani bois kambag'allikka duchor bo'lgan kishilarni qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutuvchi qonun amal qilgan. Unga ko'ra, kambag'al va muhtoj kishilarga nafaqalar berib borilgan²¹. Eramizning I-asriga daxldor bo'lgan “Ilohiy Avgust amallari” nomli hujjatda qayd qilinishicha, Qadimgi Rimda ham kambag'allarga bayramlar arafasida non va pul tarqatib turilgan²². Demak, turli davrlarda moddiy imkoniyati cheklangan kishilarni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy institutlarning mavjud bo'lgani, bunday kishilar bilan munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlarning ishlab chiqilgani,

²⁰Сафронов А. Как боролись с бедностью в древности и почему сегодня трудно придумать что-то новое.// getsiz. ru, 2018, 19 июля.

²¹Qarang: o'sha yerda.

²²Сафронов А. Как боролись с бедностью в древности и почему сегодня трудно придумать что-то новое.// getsiz. ru, 2018, 19 июля.

moddiy notenglik sababli kelib chiqqan ijtimoiy nizolar kambag'allikka har bir davrning dolzarb muammosi sifatida yondashilganidan dalolat beradi.

O'rta asrlardagi feodal munosabatlar kambag'allikning yanada keng ildiz otishiga sabab bo'ldi. XVI-XVII-asrlardan boshlab agrar jamiyat o'rnini industrial jamiyat egallay boshlashi natijasida shahar va qishloqlardagi kambag'allar sonini nisbatan ko'paytirdi, kambag'allikni esa barqaror ijtimoiy hodisaga aylantirdi. Jamiyatdagi iqtisodiy ishlab chiqarish xarakterining o'zgarishi, iqtisodiy munosabatlarning yangicha tus olishi tufayli jamiyatning ko'plab a'zolari ish topishga, yangidan paydo bo'layotgan kasb-hunarlarini o'zlashtirishga, buning natijasida o'z ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga harakatni boshladilar.

Olimlar tomonidan kambag'allikni tugatishning ilmiy-nazariy tahlili asosida uch xil yondashuvga asos solingan. Jumladan,

- sotsial-darvinistik yondashuv tarafdorlari (G.Spenser, E.Giddens, P.J.Prudon) aholi o'rtasidagi tengsizlikni, xususan kambag'allikni jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch sifatida talqin qiladilar;

- egalitaristik yondashuv tarafdorlari (J.Russo, G.Babef, E.Reklyu, K.Marks, F.Engels) kambag'allikni adolatsiz ishlab chiqarish munosabatlari va moddiy ne'matlar taqsimotidagi nomuvofiqliklar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy holat deb ta'riflaydilar;

statistik-sotsiologik yondashuv tarafdorlari (F.Le-Ple, Ch.But, S.Rauntri) kambag'allikni ijtimoiy illat sifatida baholaydilar²³. Demak, keltirilgan yondashuvlar va ilmiy manbalar "kambag'allik" tushunchasining ilmiy ta'rifini shakllantirishda nazariy asos vazifasini o'taydi. Shunday qilib, *kambag'allik – insonning hayot kechirishi, salomatligi va layoqatini saqlash, to'laqonli faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini minimal darajada qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog'liq ijtimoiy ahvoldir.* Kambag'allik ijtimoiy hodisasini mutlaq va nisbiy kambag'allik deb tasniflash o'rinlidir.

"Zamonaviy jamiyatda kambag'allikni aniqlash mezonlari va indeksleri" deb nomlangan ikkinchi paragrafda jamiyatda kamba'allikni aniqlash usullari orqali uning asosiy mezonlari ko'rsatib berilgan.

Kambag'allikni aniqlashda qo'llaniladigan *birinchi mezon* uy-joyning mavjudligi va uning ahvoli bilan bog'liq. O'z uyiga ega bo'lmagan jamiyat a'zosi kambag'al sifatida e'tirof etiladi. Lekin kambag'allik darajasi faqat uy-joyning mavjud emasligiga qarab belgilanmaydi. Bunda uy-joyning toifasi, maqomi, sifati va normasi ham mezon bo'ladi.

Kambag'allikni aniqlashning *ikkinchi mezoni* oziq-ovqat va toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi bilan bog'liq.

Kambag'allik darajasini aniqlashning uchinchi mezoni sifatida *kiyim-bosh bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.* Lekin tadqiqotchilar tomonidan bu mezonda kambag'allikning ijtimoiy hodisasi sifatida alohida ko'rsatmaydilar.

²³ Батракова Л.Г. Основные концепции оценки бедности населения // Ярославский педагогический вестник, 2011, №3.- С. 117.

Kambag'allikni aniqlashning to'rtinchi mezonni sifatida *etarli ta'lim ololmaslik* yani *ta'lim olish imkoniyatlari* bilan uzviy bog'liq jarayon tushuniladi. Bugungi rivojlanayotgan zamonaviy-innovatsion jamiyatda ta'lim – muayyan bilimlar, nazariyalar tizimini o'zlashtirish, tajriba, ko'nikma va yetarli malakalar hosil qilish, professional kasbga ega bo'lish imkonini beradigan, balki kishilarning jamiyatda o'z ijtimoiy maqomini ko'tarishga, hayot tarzi va farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladigan muhim omildir.

Kambag'allikni aniqlashning beshinchi mezonni sifatida *tibbiyot yoki sog'liqni saqlash imkoniyatlarini* ko'rsatish mumkin.

Tilga olingan mezonlar jamiyat a'zolarining kambag'alligi darajasini aniqlashda qo'llaniladi. Shuning bilan bir qatorda, ilmiy manbalarda u yoki bu jamiyatdagi *kambag'allikning ko'lamini aniqlash indeksleri* haqida ham fikr yuritiladi. Bu o'rinda ko'plab formulalar ilgari suriladi. Ulardan biri *kambag'allar miqdori indeksidir*. Mazkur indeks quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$R_0 = N_p / N,$$

bunda R_0 – kambag'allar miqdori indeksini, N_p – kambag'allar sonini, N – aholining umumiy sonini ifodalaydi²⁴. Masalan, 1 million kishi istiqomat qilayotgan mamlakatda kambag'allar soni 10 ming kishiga teng bo'lsa, uning kambag'allar miqdori indeksi $10000/1000000=0,01$ ga teng bo'ladi. Eng yuqori indeks (1) jamiyatda kambag'allikning keng ildiz otganini, quyi indeks esa, aksincha, kambag'allik ko'lamining pastligini anglatadi. Zamonaviy jamiyatdagi kambag'allik ko'lamini aniqlash va ifodalashda keyingi yillarda ayniqsa *Jini indeksidan* foydalanish urf bo'lmoqda.

“Kambag'allikni vujudga keltiruvchi asosiy sabablar” deb nomlangan uchinchi paragrafda jamiyat a'zolarining kambag'allik indeksining o'sib borish dinamikasi va keltirib chiqaruvchi tub ildizlari tahlil etiladi. Kambag'allikning ijtimoiy xususiyatga ega sabablari, avvalo, *iqtisodiy omillar* bilan bog'liq. Bu omillarning eng ahamiyatlisi jamiyatdagi ishsizlik darajasidir. Jahon tajribasi ham shundan dalolat bermoqda: qaysi mamlakatda ishsizlik darajasi yuqori bo'lsa, undagi kambag'allik ko'lami ham kattaligicha qolmoqda. Kambag'allik *siyosiy omillar* oqibati ham bo'lishi mumkin. Inson turmushi farovonligi, manfaatlari himoyasi, haq-huquqlari ro'yobi jamiyatda hukm surayotgan siyosiy rejim va vaziyatga, turli siyosiy jarayon va voqealarga bog'liqdir. Jamiyat a'zolarini kambag'allikka olib keluvchi eng katta omil urushlardir. Shuningdek, kambag'allikni vujudga kelishiga sabab bo'ladigan *ijtimoiy omillar* ham mavjud. Bularga demografik, mintaqaviy, shaxsiy, ruhiy, diniy, madaniy-ma'rifiy, tibbiy omillarni keltirib o'tish mumkin.

1. Kambag'allik – insonning hayot kechirishi, salomatligi va layoqatini saqlashi, to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini minimal darajada qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog'liq ijtimoiy ahvoldir. U imkoniyatlarning mutlaqo cheklanganligini anglatuvchi mutlaq, imkoniyatlarning kamligini anglatuvchi nisbiy kambag'allikka tasniflanadi.

²⁴Voices of the Poor. Chapter 4.//Poverty Manual, All, JH Revision of August 8, 2005. - P.70.

2. Shu o‘rinda kambag‘allikni imkon darajasida kamaytirish uchun birinchi galda jamiyatdagi turli qatlamlar orasidagi mavjud kambag‘allar soni hamda kambag‘allik darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bunda yashash uchun yaroqli uy-joyning mavjudligi va uning ahvoli, zarur oziq-ovqat mahsulotlari va yaroqli toza ichimlik suvi hamda kiyim-bosh bilan ta‘minlanganlik darajalari hisobga olinadi. Bundan tashqari ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash imkoniyatlari kambag‘allar soninianiqlash mezoni vazifasini bajaradi. Kambag‘allikning ko‘lami esa kambag‘allar miqdori indeksi, J.Foster, J.Griyer va E.Torbeke indeksi, Jini indeksi va shu kabilar yordamida aniqlanadi.

3. Kambag‘allik ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlarga ega sabablar oqibatida vujudga keladi. Ijtimoiy xususiyatga ega sabablar turkumiga iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, demografik, mintaqaviy omillar kiradi. Shaxsiy xususiyatdagi sabablar turkumiga esa ruhiy, diniy, madaniy-ma‘rifiy, tibbiy omillar va turli ijtimoiy illatlar kiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbekistonda kambag‘allikning shakllanishi sabablari va oqibatlari”** deb nomlanib unda O‘zbekistondagi kambag‘allik ko‘lami va tub ildizlari, mamlakatdagi kambag‘allikning ijtimoiy oqibatlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etiladi.

“O‘zbekistondagi kambag‘allik ko‘lami va tub ildizlari” deb nomlangan paragrafda mamlakatimizda kambag‘allikka olib keladigan omillar, uning ko‘lami kengayishiga sabab bo‘layotgan holatlar o‘rganiladi.

“Yangi O‘zbekiston mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, erkinlik va ozodlikning yangi davri, bunyodkorlik va farovonlik yo‘lining yuqori bosqichidir. Yangi O‘zbekiston – bu “Xalq manfaati hamma narsadan ulug‘” degan ezgu g‘oya amaliy ishlar bilan o‘z tasdig‘ini topayotgan zamondir. Yangi-yangi uy-joylar, zamonaviy korxonalar, ta‘lim, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari, obod qishloq va shaharlar yurtimiz chiroyiga chiroy qo‘shayotgan tarixiy bir davrdir”²⁵. Bunday obod va farovon turmush tarzini bunyod etish uchun esa eng avvalo mamlakatdagi kambag‘allikni kamaytirish taqozo etiladi. Aynan shuning uchun ham Yangi O‘zbekiston strategiyasi miqyosida “2030-yilgacha kambag‘allik darajasini ikki martaga kamaytirish choralari ko‘rilmoqda”²⁶. Biroq ushbu ulkan ahamiyatga molik ijtimoiy vazifani uddalash uchun dast avval O‘zbekistondagi kambag‘allikning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari va tub ildizlari aniqlanmog‘i maqsadga muvofiqdir.

Kambag‘allik xalqning bir necha ming yillik tarixida turli shakl ko‘rinishlarida namoyon bo‘lib kelmoqda. Tabiiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va boshqa omillar mamlakat hududidagi kambag‘allik ko‘lamiga goh ijobiy, goh salbiy ta‘sir ko‘rsatib kelgan. E‘tiborli jihati shundaki, jamiyatda barcha davrlarda kambag‘allarni qo‘llab-quvvatlashga doir ijtimoiy mexanizmlar mavjud bo‘lgan. Xorijiy ekspertlarning bergan bahosiga ko‘ra, O‘zbekistonda 1994-yili aholining 44,5 foizi kambag‘allik chegarasida turgan bo‘lsalar, bu ko‘rsatkich 1996-yili 31,1 foizni, 1998-yili 28,7 foizni, 2001-yil 27,5 foizni, 2005-yili 25,8 foizni,

²⁵ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- T.:O‘zbekiston, 2021.- B.26-27.

²⁶ Qarang: o‘sha yerda.- B. 207.

2010-yil 17,7 foizni, 2015-yil 12,8 foizni, 2019-yil 11,0 foizni tashkil etgan”²⁷. Bu mamlakatdagi kambag‘allik darajasining qisqarib borayotganidan dalolatdir, ammo jamiyatda kambag‘allik ijtimoiy hodisasi hamon saqlanibqolmoqda. Barcha mamlakatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistondagi kambag‘allikning ham ijtimoiy va shaxsiy xususiyatga ega sabablari mavjud. *Ijtimoiy* xususiyatga ega sabablar haqida gapirganda, birinchi navbatda *ishsizlik* omilini tilga olish zarur. Diyorimizda ishsizlik sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat vazirligining ma’lumotlariga qaraganda, mamlakatimizda “2022-yilning 1-yanvar holati bo‘yicha mehnat resurslari soni 19,3 mln kishini tashkil etib, 2020-yil shu davriga nisbatan 1,1 foizga yoki 202,6 ming kishiga oshgan”²⁸. Bizningcha bu ko‘rsatkichlar kambag‘allik ko‘lamini qisqartirish uchun yetarli emas, uning barcha sabablari birgalikda isloh etilgandagina sezilarli o‘zgarishlarga erishish mumkin. Ishsizlikdan tashqari yurtimizda kambag‘allikning yana quyidagi sabablarini keltirib o‘tish mumkin:

- mamlakatda munosib ish o‘rinlarining taqchilligi;
- mahalliy hokimliklar ish uslubining eskirganligi;
- ta’lim tizimi sifat darajasining pastligi;
- sog‘liqni saqlash tizimining islohtalabligi;
- mamlakatdagi o‘ziga xos demografik vaziyat;
- mamlakat mintaqalarining notekis rivojlanganligi;

“Mamlakatdagi kambag‘allikning ijtimoiy oqibatlari” deb nomlanuvchi bobning ikkinchi paragrafida kambag‘allik sabablari tufayli kelib chiqayotgan oqibatlar va ularga qarshi kurash mexanizmlarini shakllantirish borasida mulohaza yuritiladi.

O‘zbekistondagi kambag‘allik hodisasi turli ijtimoiy oqibatlarga olib kelmoqda: *birinchidan*, kambag‘allik mamlakatdagi iqtisodiy o‘sish sur‘atlariga ta’sir ko‘rsatmoqda;

ikkinchidan, kambag‘allik yashirin iqtisodiyot ko‘lamini kengaytirmoqda;

uchinchidan, kambag‘allik mehnat migratsiyasi ko‘lamini tobora o‘sib borishiga sabab bo‘lmoqda;

to‘rtinchidan, kambag‘allik aholi xarid qobiliyatini pasaytirmoqda;

beshinchidan, kambag‘allik jamiyatdagi jinoyatchilik darajasining oshishiga sabab bo‘lmoqda;

oltinchidan, kambag‘allik jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni kengaytirmoqda;

yettinchidan, kambag‘allik tufayli ijtimoiy muammolarning har qanday yechimidan norozi bo‘lishga odatlangan qatlam miqdori oshib bormoqda;

sakkizinchidan, kambag‘allik ekstremistik g‘oyalar va guruhlar ta’siriga tushib qolgan kishilarni vujudga keltirmoqda;

to‘qqizinchidan, kambag‘allik mamlakat shahar va qishloqlarining qiyofasiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xullas, kambag‘allik ko‘lamining kamaytirilishi mazkur muammolarning ham hal qilinishiga mustahkam zamin yaratadi.

²⁷ Хасанов Р. Камбағаллик муаммоси: моҳияти ва омиллари.// Иқтисодиёт: таҳлиллар ва прогнозлар, 2021, №1. –Б. 20.

²⁸ O‘zbekistonda rasmiy ishsizlik darajasi ma’lum qilindi.// kun.uz, 2022, 8-mart.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirish yo‘llari**” deb nomlanib unda kambag‘allikni qisqartirishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari hamda mehnat tarbiyasining kambag‘allik ko‘lamini kamaytirish omili va uning mohiyati tahlil etiladi.

“Kambag‘allikni qisqartirishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari” deb nomlangan paragrafda kambag‘allik sabablarini bartaraf etish uchun mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy asoslarni yaratish borasidagi muammolarga echim izlanadi. Zaruriy ijtimoiy-iqtisodiy asoslarni yaratmasdan turib, kambag‘allik muammosini kun tartibidan olib bo‘lmaydi. Mavzuni iqtisodiy kontekstda tadqiq qilgan barcha mutaxassislar kambag‘allikning vujudga kelishi, kengayishi yoxud, aksincha, kamayishi mamlakat tanlagan ijtimoiy-iqtisodiy tizimga, ijtimoiy ishlab chiqarish tipiga, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot kursiga, ijtimoiy institutlar faoliyati samarasiga borib taqalishini qayd qiladilar²⁹. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, kambag‘allikning iqtisodiy muammosini bartaraf etishda ijtimoiy va falsafiy soha taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda o‘tgan yillar mobaynida kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy asoslarni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- kuchli ijtimoiy siyosat va unga asoslangan qonunchilik tizimining yaratilishi;
- yangilanib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyalarining ishlab chiqilishi;
- kambag‘allik ko‘lamini qisqartirish borasidagi xalqaro hamkorlik dasturlarining amalga oshirilishi.

Ammo kambag‘allik darajasini qisqartirishda faqatgina nazariy chora-tadbirlarning, ya’ni yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy asoslarning o‘zi yetarli emas. Bizningcha, mamlakatimizda tayyorlanayotgan kambag‘allikni kamaytirish dasturiga quyidagi yo‘nalishlardagi amaliy chora-tadbirlarni kiritilishi maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini siyosiy va geosiyosiy omillardan muhofaza qilish;

ikkinchidan, jamiyatda yaratilayotgan ish o‘rinlarining miqdorinigina emas, sifatini ham oshirish;

uchinchidan, jamiyat a’zolarining raqamli iqtisodiyot elementlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

to‘rtinchidan, sifatli ta’lim olish imkoniyatlaridagi tengsizlikni bartaraf etish;

beshinchidan, kam ta’minlangan oilalarni sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

oltinchidan, ijtimoiy himoya tizimini zamonaviylashtirish;

yettinchidan, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish;

“Mehnat tarbiyasi – kambag‘allik ko‘lamini kamaytirish omili” deb nomlanuvchi paragrafda inson hayotida mehnat tarbiyasining ahamiyati hamda uni kambag‘allik fenomeniga qarshi kurashdagi eng muhim xususiyatlari tahlil etiladi.

